

Ona tili

IV qism

2



UO'K: 811.512.133(075.3)

BBK 81.20'zb-922

K 94

Kuranov S.D.

Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. IV qism. /
S.D. Kuranov – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 88 b.

Taqrizchilar:

Sh. Y. Muslimova – Toshkent shahar 328-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

M. M. Umarova – Toshkent shahar 222-umumiy o'rta ta'lim maktabining birinchi toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

ISBN 978-9943-9712-7-1

© S.D. Kuranov

© "Novda Edutainment", 2023

Shartli belgilar:



Og'zaki
bajaring



Yodda
tuting



O'ylab
ko'ring



Uyga
vazifa



Yozma
bajaring



Guruh bo'lib
ishlang



Juft bo'lib
ishlang

MEN VA TEXNOOLAM



Eng yaxshi ixtirolar

Buvi: Ko'zoynakni ixtiro qilgan odamning otasiga rahmat! Shu narsa bo'lmasa, men nima qilardim-a?

Temur: Buvijon, sizningcha, dunyodagi eng yaxshi ixtiro qaysi?

Buvi: Odamlarning og'irini yengil qilgan ixtirolarning hammasi yaxshi. Gazetada o'qigandim, g'ildirak ham eng yaxshi ixtirolardan biri ekan.

Temur: G'ildirak? Axir, u oddiy narsa-ku!

Buvi: Ammo qadimda, hali ko'p narsa ixtiro qilinmagan vaqtlarda, g'ildirak oddiy narsa bo'lmagan. Hozir senga oddiy tuyuladigan telefon, bir vaqtlar biz uchun mo'jizaga o'xshar edi.



O'ylab ko'ring.

1. Sizningcha, dunyodagi eng yaxshi ixtiro qaysi?
2. Ixtirochi bo'lsangiz, nima ixtiro qilgan bo'lardingiz?

“G'ildirak? Axir, u oddiy narsa-ku!” gapida so'roq va undov belgilari nega ishlatilganini izohlang.



1-mashq. Rasmlarga qarang.



G'ildirak



Kompas



Toshbosma



Radio



Elektr toki



Antibiotik



Bug' dvigateli



Televizor



Kompyuter



Internet

1. Yana qaysi kasb egalari kompyuterdan foydalanadi?
2. Nima deb o'ylaysiz, nega odamlar kompyuterdan foydalanadilar?
 - G'ildirak, elektr toki, televizor va internet haqida bittadan gap tuzing.
 - Tuzgan gaplaringizdagi **Nima?** so'rog'iga javob bo'luvchi so'zlarning tagiga bitta chiziq chizing.



2-mashq. Mos soʻzlarni tanlab, Aqlbekka vagonlarni toʻgʻri ulashga yordam bering.



1. Gap nimalardan tuziladi?
2. Gap boʻlishi uchun soʻzlar bir-biriga toʻgʻri bogʻlanishi kerakmi?
3. Agar vagonlarni *Aqlbek + telefon + uy* shaklida ulasak, gap hosil boʻladimi?



Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Gap tugallangan fikrni bildiradi.
Gap soʻzlardan tuziladi.
Gapning birinchi soʻzi bosh harf bilan boshlanadi.





3-mashq. Berilgan soʻzlardan mosini tanlab, tugallanmagan gaplarni toʻldirib yozing.

Foydalanish uchun soʻzlar:

bormang

qiling

qilmang

ovqatlanmang

unutmang

oʻynang

Kechqurun toʻyib ...

Tishlaringizni yuvib yotishni ...

Har kuni ertalab badantarbiya

Telefon va kompyuterni kamroq ...

Nonushta qilmasdan maktabga ...

- Tugallangan gapning tugallanmagan gapdan qanday farqi bor?



Oʻzingiz yaxshi koʻrgan ixtiro haqida 3 ta gap tuzing.



4-mashq. O'qing.

G'ildirak tarixdagi eng yaxshi ixtirolardan biridir. Ilgari odamlar og'ir yukni yelkalarida ko'tarishga majbur bo'lganlar. Ammo g'ildirakli transport – arava odamlarning uzog'ini yaqin, og'irini yengil qildi. G'ildirak ixtiro qilingandan so'ng qishloq va shaharlar tezroq rivojlandi. Olimlarning taxminicha, g'ildirak bundan yetti ming yil oldin ixtiro qilingan ekan. Hozirgi Suriya va Ruminiya hududlaridan ilk yog'och g'ildiraklarning qoldiqlari topilgan.



1. G'ildirak ixtiro qilinmaganida, hozir qanday qurilmalar bo'lmasdi?
2. Matnda nechta gap bor?
3. Qaysi tinish belgisi gapning tugallanganini bildiradi?



5-mashq. Gaplarni ko'chiring.

**Madina
maktabga
bordi.**

**Abror
qaysi sinfda
o'qiydi?**

**Oyijon,
bugun
"5" oldim!**



Ikkita so'z bir-biriga qo'shilishidan paydo bo'lgan so'zlar ishtirokida 5 ta gap tuzing.

Mundarija:

MEN VA TEXNOOLAM

21-mavzu. Eng yaxshi ixtirolar.....	4
22-mavzu. Zamonaviy texnologiyalar.....	17

SAN'AT VA MEN

23-mavzu. Dunyo tillari.....	29
24-mavzu. Mening shirin suhbatlarim.....	38
25-mavzu. Maktabimiz devoriy gazetasi.....	48

SOG' TANDA SOG'LOM AQL

26-mavzu. O'qib uqmoq kerak.....	60
27-mavzu. Ham foydali, ham mazali.....	72
28-mavzu. Olimpiada o'yinlari.....	80

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga

murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

2-sinf ona tili IV qism kitobini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.

Telegram kanalimiz:

[@Maktablar_uchun_hujjatlar](https://t.me/@Maktablar_uchun_hujjatlar)



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT

QILMANG.